

## MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLADA O'ZINI-O'ZI ANGLASH JARAYONINING RIVOJLANIB BORISHI

Yusupov Umdjon

O'zbekiston milliy universiteti jizzax filiali assistent o'qituvchi

Hatamova Mohira

O'zbekiston milliy universiteti jizzax filiali talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu tesizda maktabgacha yoshdagi bolada o'zini o'zi anglash jarayonining rivojlanib borishi, psixologik ta'sirlarning bolaning kognitiv rivojlanish sohasiga ijobiy va salbiy jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, individuallik, maktabgacha yosh davri, ijtimoiy muhit, Jan Piaget, kognitiv rivojlanish, ota-onas, o'zini o'zi anglash, chaqaloqlik davri, maktabgacha yosh davri.

Hozirgi kunda bolalarning kognitiv rivojlanish sohasi juda muhim ahamiyat kasb etib ulardagi individuallik xususiyatlarni rivojlanishiga ta'sir etmoqda. Bolalarning kognitiv rivojlanishini o'z tadqiqot maqsadi qilgan taniqli olim Jan Piagetning ilmiy amaliy ishini tadqiqotimizda nazariy asosi bo'lgan yana bir muhim manba deb ayta olishimiz mumkin. O'zini-o'zi anglash komponentlari bola tug'ilgandan boshlab har bir yoshda tashqi obyektiv olam bilan o'zaro munosabat natijasida rivojlanib boradi. U bolalarning kognitiv rivojlanishini - fikrlash, bilish, eslash va muloqot qilish bilan bog'liq barcha aqliy faoliyatni o'rgangan. Olimning qarashlarida aniq bo'ldiki bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan intellekt o'zgaradi. Bolaning kognitiv rivojlanishi nafaqat bilim olish bilan bog'liq, balki bola dunyoning aqliy modelini ishlab chiqishi yoki qurishi kerak. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan nazariyotchi olimlarning talqiniga ko'ra yana shu ma'lum bo'ldiki Piagetning qarashida ham kognitiv rivojlanish tug'ma qobiliyatlar va atrof-muhit hodisalarining ta'siri orqali sodir bo'ladi. Bevosita bola tug'ilgandan toki katta yoshli shaxs bo'lguniga qadar har bir fiziologik o'sish va kognitiv rivojlanish bilan birga o'zini-o'zi anglash jarayoni ham shakllanib boradi deb ayta olishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, bola shaxsining o'zini-o'zi anglash jarayonini yoshga xos kognitiv rivojlanish bilan birga talqin qilamiz.

J.Piaget o'z tadqiqotlarida yangi tug'ilgan chaqaloqning reflekslardan kattalarning mavhum mulohazasigacha ongning rivojlanishini bosqichlarga bo'lib o'rganadi:

1. Sensomotor bosqich: tug'ilgandan 18-24 oygacha
2. Operatsiyadan oldingi bosqich: 2 yoshdan 7 yoshgacha
3. Beton operatsion bosqichi: 7 yoshdan 11 yoshgacha

#### 4. Rasmiy operatsion bosqich: 12 yosh va undan yuqori

Chaqaloqning ilk kognitiv rivojlanish refleksli harakat bosqichiga ko'ra bola tug'ilgandan 1 oylikkacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda yangi tug'ilgan chaqaloq tashqi ta'sirlarga tug'ma reflekslar bilan javob beradi. Chaqaloqlik davri insonning kamol topishida xulq-atvorning tug'ma instinctiv ko'rinishlari: nafas olish, ovqatlanish, haroratdan ta'sirlanish va hk...sof holda namoyon bo'lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolaning fiziologik o'sishi jadal kechadigan davr ham hisoblanadi. Psixik rivojlanishning moddiy asosi bo'lgan bosh miya tuzilish birligi bo'lgan nerv hujayralari ham hali takomillashmagan bo'ladi. Bevosida fiziologik o'sish bilan kognitiv rivojlanishning bir-biriga uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlashimiz darkor. Nerv hujayralarinig miyelin qismininig toliq shakllanishi va miyaning rivojlanishi tashqi muhitdan keladigan qo'zg'atuvchilar va signallarni qabul qiluvchi hissiy bilish organlarining ko'p ishlashida muhim ro'l o'ynaydi. Miyaga stimullarning ta'sir o'tishi bosh miya katta yarimsharlar po'stloq qismining markazlarning rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu bosqichda bolaning refleksiv harakatiga misol qilib barmog'imiz bilan chaqaloqning og'zini yoki yanog'ining atrofini tozalasak, barmoqni so'rishga qaratilgan harakatlarini kuzatishimiz mumkin. Keyinchalik tug'ma reflekslar chaqaloq xatti-harakatida tashqi stimullarning ta'siri natijasida orttirilgan reflekslarning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi deb ayta olishimiz mumkin. Ushbu davrda bola hali o'zi haqida subyektiv ma'lumotga ega ekanligini ongli tushunadigan yosh hisoblanmaydi. Uning xatti-harakati tug'ma reflekslar orqali fiziologik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu ehtiyojlarning qondirib borilishi, bolada keyingi yangi munosabat va harakatni yuzaga keltiradi. Kattalarning ushbu davrda ko'proq emotsional munosabatda bo'lishi, ayniqsa onaning hissiy yaqinligi bolani o'zini ona bilan hissiy yaqinlik tuyg'usini shakllantiradi. Ayrim manbalarda qayd etiladiki ushbu davrdagi uyqusizlik va ochlikni qo'zg'atuvchilari yaqinlari tomonidan bartaraf qilinishi bolada salbiy his-kechinmani kamaytiradi.

Birlamchi doiraviy reaksiyalar bosqichida Piagetning talqiniga ko'ra o'z tanasini yoqimli harakatlari bilan takrorlashi bilan qayd etadi. 1-4oylikkacha bo'lgan bolalar qo'l silkitib, oyoqlarini tepishi va barmoqlarini so'radi. Ushbu xatti-harakatini refleksli harakatlar emas balki bola o'zi yoqimli stimulatsiya uchun o'z harakati bilan qilayotgani qayd etiladi. Bolaning bu davrida sezgi organlari to'liq ish faoliyatini boshlagani bilan tavsiflanadi. Sezgi organlarining takomillashishini tashqi stimullarning qanchalik ko'pligiga, yaqinlarining bola bilan hissiy-emotsional muloqat qilishiga bog'liq bo'ladi. Bola sezgilarining rivojlanib borishi va doimiy hissiy yaqinlik natijasida bola 2 va 3 haftaligida onasining tovushini taniy boshlaydi. Bola 3oylik davrida boshini ixtiyoriy ravishda o'girishi, onaning jilmayishiga nisbatan javob qaytarishi kuzatiladi. Bu kabi jarayonlar bolada ijtimoiy stimullarni qondirishga qaratilgan ixtiyoriy harakatlarning bajarilishi, o'zining o'z tanasini boshqarishga qaratilgan ilk ko'rinishi

deb ayta olishimiz mumkin. Bunda biz o'zini o'zi anglash komponentlarining sodda ko'rinishlarini shakllanayotganini ko'rishimiz mumkin.

J. Piaget keyingi ikkilamchi doiraviy reaktsiyalar bosqichini 4-8oylikkacha bo'lgan davrini kiritadi. Bu davrda bola o'z tanalari bilan birga obyektlar bilan bog'liq harakatlarni ixtiyoriy qilishga urinadi. Yoqimli tovushni eshitish uchun qayta tovush chiqaruvchi o'yinchoqqa teginishini misol qilib keltiradi. Ijtimoiy ta'sirning ko'payib borishi bolada sodda ko'rinishdagi psixik harakatlarning rivojlanishiga zamin yarata boshlaydi. Shu bilan bir qatorda o'zlikni anglashning ayrim komponentalarning shakllanishi bilan birlgilikda rivojlanadi. Bu davrda bola o'z yaqinlarini taniy boshlashi va ular bilan muloqatga kirishishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Atrofdagi odamlarning nutqini, unga bo'lgan munosabatini idrok qilishni boshlaydi. Noverbal muloqat keyinchalik bolada verbal muloqatning shakllanishiga zamin yaratadi. Sezgi organlari orqali tashqi muhitdan olayotgan borliq ma'lumotlari, tasavvurlari, tasvirlari va obrazlari bola miya katta yarimsharlari po'stloq qismida izini qoldirishi, bilish jarayonlarining oliy markazining yanada keng rivojlanishini ta'minlaydi.

Keyingi to'rtinchi bosqich ikkinchi darajali sxemalarni muvofiqlashtirish bosqichi bo'lib, 8-12oylikkacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Piagetning fikriga ko'ra bu davr qiziqarli voqealarni shunchaki kuzatish o'rniga, go'dak endi o'z bilimlarini maqsadga erishish uchun harakat qilish belgilarini ko'rsatadi. Ya'ni tushunishimiz bo'yicha bola bu vaqtida mustaqil harakatlarining yanada ortishini kuzatishimiz mumkinligini aytib o'tadi. Bola predmetlarni o'rganuvchisi va harakatlantiruvchisi hisoblanadi. Predmetlar bilan tanishib va ularni to'g'ri harakatlantira boshlaydi. O'z xatti-harakatlarini boshqarish va obyekt bilan munosabatga kirishishga harakat qiladi. Bu jarayonni o'zlikni o'z tanasini borliqdan ayri holda his eta boshlaganidan bilsak bo'ladi. Bola o'zini qiziqtirgan predmetga yaqinlashishi va u predmet bilan tanishish orqali bilimga ega bo'lishga intilishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ixtiyoriy harakatning ko'lami yanada kengayadi.

Beshinchi kichik sensomotor bosqichida qayd etishicha bola bu davrda predmetlarni qismlarga bo'lib o'rgangan bo'lsa, endilikda yana birlashtirishga harakat qiladi. Masalan: o'zining yuk mashinasidagi olib tashlangan g'ishtlarni yana qayta o'yinchoq yuk mashinasiga qayta joylaydi. Ya'ni o'rganilayotgan predmetlarni qayta yana o'z holiga tiklashi yoki joyiga qo'yishga urinish harakatlari paydo bo'ladi. Demakki bu davrda bola kognitiv jarayonlari oldingi davriga nisbatan ancha rivojlangan bo'ladi.

M.L. Karen o'zining maktabgcha yoshdagি bolalarda o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi bo'yicha olib borgan tadqiqotida bolaning o'zini-o'zi anglash komponentlarining rivojlanishini aniqlash bo'yicha bir qancha tajribalarini aniqlagan. Unda go'daklar muhitni idrok qila boshlaganda hissiy ma'lumotlar paydo bolishi qayd etiladi. Unga ko'ra hissiy ma'lumotlar ikki shaklda keladi: obyektlar va boshqa odamlar haqida o'ziga xos tashqi

ma'lumotni beruvchi propriospesifik ma'lumotlar. Go'dak bu ma'lumotlar asosida o'z tanasi va harakatlarini boshqalardan ajrata oladi, bu o'ziga xoslikni va o'zini -o'zi idrok qilishning rivojlanishini bildiradi. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra bola 3 oylikdan o'z-o'zidan qiziqish va boshqalarga bo'lgan qiziqishning rivojlanishida burilish nuqtasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan. Bu esa o'zini-o'zi idrok qilish shu yoshdan bog'liqligini ko'rsatgan. Tadqiqotda bolalarning fotosuratlarda va mos bo'limgan videolarda o'zlarini tan olish qobiliyati o'rganildi. Lyuis va Brooks-Gunn (1979) bolalar ikki yoshdan boshlab fotosuratlar va o'ziga xos bo'limgan qarama-qarshi videolarni boshqalardan ajratib olishga qodirligini aniqlaganligi qayd etiladi. Shuningdek bolada ikki yarim yoshga qadar bolalar o'zlarini to'liq aniqlay olishini ko'rsatgan. Ushbu tadiqiqotda ko'rinish turibdiki bola o'z tanasini muhitdan ajrata olishi ya'ni o'zini mavjudligini his etadi deyishimiz mumkin.

2-3 yosh bolada ramziy mustaqillikning o'sishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni bola o'zi uchun ma'lum ma'no anglatadigan so'zlardan mustaqil foydalanish qobiliyati bilan ta'riflanadi. Piagetning fikriga ko'ra til bolaning kognitiv rivojlanishini ta'minlamaydi, balki kognitiv rivojlanish tilning rivojlnishiga ehtiyoj tug'ilishi va ishlatishi orqali rivojlanadi deb hisoblaydi. Boshqa adabiyotlarda qayd etilishicha ilk bolalik amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo'l operatsiyalari turli harakatlar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurilmalardan foydalanish usullarini o'zlashtirishi natijasida unda predmetli harakat ko'nikmasi shakllanadi. Ushbu davrda bola o'zining nutqida so'zlar birikmasidan foydalanish ko'nikmasini kattalar bilan uzuksiz muloqat qilish orqali rivojlantirib boradi. Bola kattalar yordamida o'zlashtirgan ijtimoiy ko'nikmasini o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Hamda ushbu davr uchun eng muhim xususiyat "Men o'zim" konsepsiyasining vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola borliqdagi va shaxslar bilan muloqatiga erkinlik va sharoit yaratilishi, bolaning hohishiga cheklavlarning bo'lmasligi aynan mustaqil "Men" ligining yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Aksincha ushbu bosqichda qulay ijtimoiy muhit ta'siri va shart-sharoiti yaratilmasligi, bolada tobelik, qaysarlik, injiqlik kabi salbiy hissiy-kechinmalarni shakllantirib qo'yadi. Bu ilk o'zlikni anglashning noto'g'ri utanovkasining shakllanib qolishiga olib kelishi mumkin. Bu davrda bolaga e'tibor va munosabat to'g'ri qo'yilsa anglash bosqichi ham to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Mustaqil motor harakat, mustaqil kognitiv fikrlash, mustaqil harakat natijasidagi hissiy kechinma va muvaffaqiyatli natijdagi bolani o'ziga ishonchi va bahosining ham yuqori bo'lishiga, o'zidan mammun bo'lishdan lazzatlanish hissining yuzaga chiqishiga yordam berishini qayd etishimiz mumkin. Ushbu davrning yana bir xarakterli jihatini keltirib o'tishimiz mumkinki, bola atrofdagilarning e'tibor markazida bo'lishga, atrofdagilar tomonidan ijobiy baholanib borishiga harakat qiladi. O'zining qoniqish darajasi va atrofdagilarning ijobiy bahosining uyg'un kelishi bolaning kognitiv va o'zini anglash jarayoning rivojlanishini ta'minlaydi. Ikkisi o'rtasidagi nomuvofiqlik esa kognitiv rivojlanishga ham anglash jarayoniga ham sezilarli o'z ta'sirini

o'tkazadi. Bunda ko'rinaldiki, ijtimoiy muhit ta'sirida bola xatti-harakati kognitiv rivojlanishi va o'zlikni anglash jarayoni bir-biriga bog'liq rivojlanish bilan birga bir-biriga ta'sir o'tkazadi. Kongnitiv rivojlanishsiz anglash jarayoni ham takomillashmaydi. Shuningdek anglash jarayoning shakllanishi kognitiv rivojalanishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi deb ayta olishimiz mumkin. Ilk bolalik (1-3 yoshlar) davri bola uchun nihoyatda muhim davr bo'lib, bola bu davrda faol harakat qilishi, atrofdagilar bilan nutq orqali muloqotda bo'lishga harakat qilishi kuzatiladi. Bolada bilish jarayonlari: sezgi, nutq, tafakkur, xotira, hayol, idrok bir muncha murakkab rivojlanish jarayoni kechadi. Tafakkur jarayonining rivojlanishi bevosita nutqni o'rganishi bilan bog'liq. Bola nutq orqali muloqot qilishi o'zini-o'zi boshqara olish jarayonini rivojlantirishiga yordam beradi. Bola bu davrda go'daklik davriga nisbatan predmetlarni idrok qilishi murakkabroq kechadi. Endilikda predmetlarni sinchiklab o'rganishga harakat qiladi. Kattalar bilan o'z hohishiga ko'ra munosabatda bo'la boshlaydi. O'z ehtiyojlarini so'z orqali bildirishga urinadi. Kattalarning bildirgan munosabatiga o'zini hissiy-emotsional xatti-harakati va so'zi orqali bildirishga harakat qiladi. Bunda bolaning o'z hissiy-emotsional jihatlarini boshqara olish jarayoni rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu davrda bola o'zini yaqinlari davrasida o'z o'rmini ijtimoiy ahamiyatini bilishga harakat qiladi. Kattalar e'tiborida bo'lishga intiladi. O'zini kognitiv bilishga urinish harakatlari kuzatiladi.

Huddi shunday bola shaxsi kognitiv rivojlanishi bo'yicha tadqiqot olib borgan taniqli olimlardan biri L. Vigotskiyning ishlari ijtimoiy-madaniy nazariya sifatida tanilgan kognitiv rivojlanishdagi ko'plab tadqiqotlar va nazariyalarning asosiga aylandi. Vigotskiyning ijtimoiy tarixiy-madaniy nazariyasi inson taraqqiyotini bolalar ijtimoiy madaniy qadriyatlar, e'tiqodlari va muammolarni hal qilish strategiyasini jamiyatning ko'proq bilimdon a'zolari bilan birgalikdagi muloqotlar orqali egallaydigan ijtimoiy vositachilik jarayoni sifatida qaraydi. Vigotskiyning nazariy qarashalariga ko'ra bola shaxsi kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit ta'siriga bog'liqligini ta'kidlaydi. Kognitiv rivojlanishni yana til bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi. Tafakkur va tilni bola dastlabki kunlarida alohida bo'lib 3 yoshida birlashadi. Shunda nutq va fikr bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Vigotskiy tilning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini va bola shaxsi kognitiv rivojlanishini ta'minlashini qayd etadi.

Maktabgacha yosh davrida quyidagi anglash komponentlarining ilk sodda ko'rinishlari shakllana boradi:

- o'zini - o'zi bilishi;
- o'z - o'ziga munosabat;
- o'zini - o'zi his qilish;
- o'zini - o'zi nazorat qilish;
- o'zini - o'zi boshqarish

Bola o'zligini anglashning tashqi va ichki belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. "O'zim" bilan bog'liq ezgu niyat mustaqillikka intilish tuyg'usini vujudga keltiradi. Ularning ta'siri tufayli

unda o'z xulq-atvori, "yurish-turishi" bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug'iladi.

Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, bolada o'zini-o'zi anglash jarayoni tashqi muhit stimuli natijasida ilk o'z tanasini harakatga keltirishi va boshqarishida, keyinchalik verbal va noverbal muloqotning o'zi hohlagan yaqin insoni bilan o'rnatishga qaratilgan harakati, kattalar yordamida o'rgangan bilim va ko'nikmalarini o'zi mustaqil bajarishga urinishi, o'z ehtiyojlarini qondirish va qilgan ishiga nisbatan o'zidan qoniqishi, o'ziga bergen bahosi kabi anglash komponentlarining rivojlanishini qayd etishimiz mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yusupov, U. (2022). Gaybullayeva M. Yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirish. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 515-518.
2. Nikolaevich, U. P., & XXX, S. A. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145.
3. Yusupov, U. (2022). Ergasheva M. Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 442-445.
4. Юсупов, У., & Ермаматова, Г. (2022). Deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 448-450.
5. Yusupov, U., & Baxtiyorova, M. (2022). Ijtimoiy gender stereotiplar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 452-455.
6. Salim o'g'li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.
7. Umidjon, Y., & Muhlisa, G. A. (2023). O'ZBEK XALQINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 53-59.
8. Umidjon, Y., & Muhlisa, G. A. (2023). BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 29-34.
9. Umidjon, Y., & Dilyora, A. (2023). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENCE. Conferencea, 89-93.
10. Umidjon, Y., & Ibrohim, O. (2023). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLA SHAXSI PSIXIK RIVOJLANISHIDA O'ZINI-O'ZI ANGLASHNING AHAMIYATI. Conferencea, 83-88.
11. Abdunazarova, S., & Yusupov, U. (2023). THE ROLE OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PERSONAL PERCEPTION OF A

- PRESCHOOL CHILD. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 139-144.
12. Файзуллаева, Г. (2022). Oilada muloqotchanlikka kirishishning psixologik jihatlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 469-471.
- 13.
14. Alimov, N., & Gulrukh, F. (2022). Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 6, 38-41.
15. Gavhar, K. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF RELATIONS IN A YOUNG FAMILY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(1), 217-221.
16. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEENOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.
17. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. (2016). Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2), 64-67.